

Rasulova Durдона Adham qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Bemor” hikoyasining adabiyotshunoslikda tutgan o'rni va badiiy tahlili berib o'tildi.

Annotations: In this article, the role of the story "The Patient" in literary studies and an artistic analysis were given.

Kalit so'zlar: qahramonlarga psixologik portret yaratish, badiiy tahlil, chilyosin, baxshi, tabib, bemor, davr, insoniylik, ilmsizlik, tibbiyot, nochorlik, qoloqlik, johillik.

Ключевые слова: Чилиосин, бахши, врач, больной, эпоха, человечество, невежество, медицина, беспомощность, отсталость, невежество.

Keywords: Creating a psychological portrait of the characters, artistic analysis chilyosin, baxshi, doctor, patient, period, humanity, ignorance, medicine, helplessness, backwardness, ignorance.

Yer yuzida san'atlar juda ko'p. Ularning ichida eng saralaridan biri badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotning eng muhim quroli— so'z. So'zlar vositasida badiiy tasvir vujudga keladi.. Badiiy tasvir sabab o'quvchida o'zi o'qiyotgan asar muhitiga tushish, obrazlar bilan birga yashash, sevinish, qayg'urish, muhabbat, nafrat kabi tuyg'ularni tuyish, asarni ich-ichidan his qilish imkoniyati yuzaga keladi. Shuning uchun, bir necha asr muqaddam yozilgan asarning qaysidir qahramonini qaysidir biz bilgan va biz bilan bir zamonada yashayotgan kishiga qiyislaymiz. Bunda zamon va makon munosabatlari, badiiy adabiyotning kuchi o'laroq, o'zgaradi. Bu borada yozuvchining mahorati katta ahamiyat kasb etadi. Yurtimizning ham mana shunday mahoratli, serqirra ijodkorlari ko'p. Ulardan biri Abdulla Qahhordir. Bir paytlar ijodkorning o'zi adabiyot borasida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: „Adabiyot —

ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi — meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi...

Barcha san'atlarning eng a'losi bu albatta badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotning eng muhim quroli bu so'zdir. Biz so'zlar yordamida yosh kitobxon ko'nglida unitimas xotiralar qoldiramiz. Bu so'z bilan inson qanchalik narsa qila olishini bilsaydi. So'zlardan har qanday kishi o'z o'rnida fodalana olmaydi. Albatta so'zdan qanday foydalanish shaxsning o'ziga bog'liq. Bizning qalami o'tkir yozuvchilarimiz so'zlardan fodalanib shunday asarlar yaratganki, ular asrlar o'tsa ham o'z qimmatini yo'qotmagan va bundan keyin ham yo'qotmaydi. Anashunday so'zdan durday foydalangan, o'zbek hikoyachiligiga ulkan tamal toshi qo'ygan yozuvchi bu albatta Abdulla Qohhordir. Abdulla Qahhor ijodini hikoyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ijodkor o'zi yashab o'tgan davr bilan bog'liq. Turli mavzulardagi ijtimoiy va tarbiyaviy hikoyalar bisyor. Anashunday hikoyalardan biri “Bemor” hikoyasi. Hajmi kichik va mo'jazgina bo'lishiga qaramay, hikoyaning salmog'i, zalvori ancha katta. Bu hikoyada o'sha davr hayoti ochib berilgan. Uning har bir obrazlariga e'tibor bilan nazar solsak, hozirda ham afsuski shunday odamlar topiladi. Ya'ni Abdulg'ani boydek kimsalar hali ham oramizda mavjud. Bunday odamlarning borligini eshitib albatta hayotdan nafratlanasan kishi. Bu hikoyani o'qigan har bir inson xayolida savollar tug'ila boshlaydi. Ya'ni qanday “nahotki bir kishi o'lim to'shagida yotsayu ammo unga yordam bera oladigan kishi topilmasa”, “inson hayoti shunchalik arzonmi?”, “nega go'dakka hech kimning rahmi kelmaydi?”, “Abdulg'aniboydek insonlar bilan kurashadigan bitta odam yo'q, atigi bitta” kabi savollar albatta hikoyani o'qigan kishilar qalbini tirnagan. Bu hikoyani o'qigan inson yig'lamasdan iloji yo'q. Asarda davrning muammolaridan bo'lmish qashshoqlik, ilimsizlik, loqaydlik qoralanadi va shu voqealar birlashtiriladi. Boylar va kanbag'allar o'rtasidagi farq, munosabatlar va inson qadr-qimmati o'sha davr muhirini yoritib beradi. Xalq orasida bir naql bor: “Yer yuzida yomon odamlar ko'p emas, ularga qarshi kurashmaydiganlar ko'p”. Hikoyada ham anashunday uchinchi tabaqa qurboni bemor ayol sifatida butun boshli millatning o'sha davrdagi ahvoli

ochib berilgan. Hikoyada Sotboldi ismli oddiy ishchining ayoli kasallanib yotib qoladi. Shunga qaramasdan ayol shifoxonaga olib borilmaydi. Chunki moddiy yetishmovchilik tufayli ularning imkoniyatlari cheklanib qolgan. Sotboldining faqat puli tovuq bilan qonlash, chilyosin bilan o'qitish va baxshini chaqirishga yetadi. U kasalxona so'zini eshitganda oq podsho rasmi 25 so'm pul xayoliga kelar edi va u hatto uni shifoxonaga olib borishni o'ylamaydi ham. Asarning eng ayanchli haqiqatlaridan biri ushbu davrdagi faqatgina moddiy yetishmovchilik emas, balki ma'naviy yetishmovchilik, iqtisodiy qashshoqlik ham yoritib berilgan. O'sha davrdagi boylar va kanbag'allarning bir-biriga bo'lgan bepisandlarcha muomilasi va bularning barchasi insonlarning ma'naviy qashshoqligidir. Abdulg'aniboy ham ayolning yoshligini, kichkina qizchasi borligini, ayol hayotini saqlab qolishga umid borligini, bu umid o'zi ekanligini bilsa ham yordam bermaydi. O'sha paytdagi boylarning puli ko'p bo'lsa ham ma'naviyat past ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bu davrda qashshoqlik juda kuchayadi. Shu sababli ham tashqaridan boshqa ovoz emas, gadoyning pul so'rab yurgani eshitaladi. Bemor uxlab yotgan xona ham esingizda bo'lsa juda nochor tas'virlanadi xuddi uxlayotgan, kasallangan, tomiriga bolta urilayotgan, qurilayotgan bir millat tasvirlanayotgandek go'yo.

Hikoyada Sotboldining va uning xotini qarindoshlari haqida mutlaqo so'z bormaydi. Bu qarindoshlarining yo'qligidan emas, yordam beruvchilar yo'qligini bildiradi. Bemorning qanday kasallikka chalinganligi haqida aytib o'tilmaydi.

Jamoa ilimsizlikning qurboni bo'lgan va bu kimsalardan biri tabib obrazidir. Tabiblikni kasb qilgan kishi bemorni qanday kasalga chalinganligini bilmay undan qon oladi va bu bemorni ahvolini yanadi og'irlashtiradi. Oxiri ularning umidi 3 yosharli qizchaning sahar turib duo qilishiga qoladi. Buning barchasini Sotboldi xotini o'lmasligi uchun qiladi, chunki mayibni chiqarish ham ancha pul talab qilar edi. Aynan mana shu pul qashshoqlik, nochorlik sababli. O'sha davr kishilarining qanchalik imkoniyatlaridan mahrum bo'lganligini ifodalaydi. Yozuvchi bu asarni o'sha davrdagi iqtisodiy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan kishilar kasallikka qarshi muolajani ham ola olmaydi.

Shu sababdan ham ko'p insonlar oddiy kasalliklar tufayli vafot etib ketaveradi.

Bu davrga kelib iqtisodiy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan kishilar kasallikka qarshi muolajalarni ham ololmaydi, shu boisdan oddiygina kasalliklar sabab ko'pchilik bevaqt vafot etishadi. Pul sababli inson qadri atalmish tushunchalar o'z ahamiyatini batamom yo'qotadi. Jamiyat kishilarining maqsadi qorin to'yg'azish va kundalik turmush tashvishlari bilan kifoyalanib qoladi. Bunday sharoitda farzandlarni o'qitish, ularga ilm berish haqida o'ylashni aytmasa ham bo'ladi. Asarda tabib, baxshi, qonlovchilardan ham mudhishroq hodisa bor. Butun boshli jamiyatning birgina qizaloq qiladigan duolar bilan kifoyalanishi— asarning mazmunini ochib beruvchi eng katta omil. Butun boshli jamiyatda bir ayolning dardiga darmon bo'ladigan, yordam beradigan kishi topilmaydi. Shifoxonalar, shifokorlar, boylar, badavlatlar ko'p bo'la turib, ayolga yordam beradigan, aqalli bir kishi topilmaydi. Savat to'qib ayolini saqlab qolishga harakat qilayotgan, shifokorga ko'rsatish uchun imkoniyati yetmaydigan Sotiboldining ham ahvoli juda nochor, ilojisiz tasvirlanadi asarda. Shuncha yordam berishga qodir qilingan kishilari bo'la turib bir bemor va yosh ayoni saqlab qola olmagan jamiyatda, tuzumda eng katta ayb. Bemor Sotiboldining xotini emas. Davr, muhit, insonlarning ma'naviyati, insoniyligi—bemor. Millat Hamza Hakimzoda Niyoziy fikri bilan aytganda, o'sha davr „tanasidan qon oldirgan bemor“ga aylanib qoladi. Bu paytda millatni jaholat botqog'idan qutqarishga qodir kishilar bo'la turib, bunga o'z hissalarini qo'shishni xohlamasliklari—eng og'ir dardga chalingan jamiyatlardagina uchraydigan holat.

Sotiboldi ham qo'lidan kelguncha xotinini davolatishga urinadi. Ayb Sotiboldi yoki Abdug'aniboyda emas balki o'sha davrning kasallangan jamiyatida deb bilaman. Ya'ni o'sha paytda millatni jaholat botqog'idan qutqarib oluvchi insonlar bo'la turib bunga o'z hissalarini qo'shishni zohlshmagan. “Bemor” hikoyasi XX asr hayoti haqida gapiradi. Hikoyada qashshoqlik emas, balki loqaydlik falokatga olib kelinishi yoritib berilgan. Bu asar qahramonlari ming afsus bo'lsinki, hozirgai davrda ham topiladi. Ogoh bo'ling insonlar hayotiga befarq bo'lmang!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 6-sinf Adabiyot darsligi I qism(2017) —Toshkent, Ma'naviyat,108-118-betlar

2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://talaba.su>
4. <https://www.ziyouz.com>
5. Tursunova, Sh. (2022). Muhammad Yusuf ijodida xalqona obrazlar tasnifi. Toshkent.
6. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. – T. 2. - №. 01. – C. 296-300.
7. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. - №. 10. – C. 315-321.
8. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. - №. CSPI conference 3. – C. 278-284.
9. Караханова Л. 6. DEVELOPMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. -№. 2. – C. 55-59.
10. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – C. 35-39.
11. Jurayev, R. K., & Karakhanova, L. M. (2020). Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8), 3500-3505.